

## ISLOM DINI VA UNING TARQALISHI

*Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid*

*Ro'ziboyev Hasan Javlonbek o'g'li*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

*Samarqand filiali Kompyuter Injiniroving fakulteti*

*1-kurs talabasi*

*telefon raqami +998770252415*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamda islom dinining paydo bo'lishi, uning asosi Qur'on kitobi, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hayoti va hududlarda yoyilishi to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Islom dini, Qur'oni Karim, Muhammad (s.a.v), Hashr surasi, Zumar surasi

Islom (arab. — bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) — jahonda keng tarqalgan uch dindand ( buddizm va xristianlik bilan bir qatorda) biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "muslim" ("sadoqatli"; ko'pligi "muslimun") deb ataladi. "Muslim", "muslimun" so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (mas, forslarda — musulmon, o'zbeklarda — musulmon, qirg'iz va qozoqlarda — musulmon, Ukraina va Rossiyada — basurman) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.

Islomning vujudga kelishi Islom dini Arabiston yarim orolining janubiy-g'arbiy tomonidagi viloyatlarda, xususan Hijoz vohasida joylashgan Makka va Madina shaharlarida yashaydigan arab qabilalari ( qurayshlar ) orasida birinchi yarmida vujudga kelgan yangi jahon dinidir. Islom paydo bo'lishi arafasida Arabistonning g'arbida O'rta yer dengizining Sharqiy qirg'oqlarida, shimoliy Afrikada ( hususan Misrda) yakka xudolikda asoslangan iudaizm ( yaxudolik ) dini, shimol tomondagi Vizantiya ( hozirgi Turkiya ) davlatida esa nasroniy ( xristian ) mavjud bo'lib bu dinlar arablar orasida ham tarqalmoqda edi. Bu to'g'risida Qur'onda ham ma'lumotlar berilgan ( Baqara surasi)

VII asrda Hijoz (G'arbiy Arabiston) da paydo bo'ldi. Uning asoschisi Muhammad (s.a.v)dir. Islom dinining paydo bo'lishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb uqtiriladi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu xudo, ya'ni Alloh odamlarga payg'ambar-elchilar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammad (s.a.v)ni

tanladi, unga o'zining kalomi — Qur'on nozil qildi. Qur'on arabcha, "qiroat", "o'qish" degan ma'nolarni anglatadi. Qur'oni Karim 23 yil mobaynida Muhammad (s.a.v.) ga nozil qilindi. U 114 ta suradan iborat.

Muhammad (s.a.v.) oldin o'z ham shaharlarini, so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona xudo — Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etdi. Qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim. (a s) Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan.

“U osmonlaru yerni haq ila yaratgan, kechani kunduz ustiga o'raydigan, kunduzni kecha ustiga o'raydigan, quyosh va oyni bo'sundiradigan zotdir. Har biri belgilangan muddatcha yurmoqda. Ogoh bo'ling kim, U azizu mahfiratli zotdir. (Zumar surasi 5-oyat)”

Butun yer yuzidagi insoniyat, Sharqu G'arbdagi barcha qavm va millatlarga rasul qilib yuborilgan payg'ambarlarning oxirgisi Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallam qiyomatga qadar odamzotni saodat va najotga yetaklovchi ulug' yo'lboshchi bo'lib qolaveradilar. Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) shamoillari, xulq-odoblari har bir mo'min-musulmon uchun katta ibrat, u zotning yashash tarzlari, ko'rsatmalari, amr-qaytariqlari har birimiz uchun muhim dasturil-amaldir. Chunki Payg'ambar alayhissalom yurish-turishda, muomala-muosharatda, holi hayotda va ibodatda, oilada va kishilar orasida, xullasi barcha sohada o'z davrlarida ham, undan keyin Allohning rasuliga xos yuksak fazilatlar, oliy xulq sohibi bo'lib qoldilar. Zotan, Nabiyning (sollallohu alayhi vasallam) o'zlari ham: «Men yaxshi xulqlarni kamolga yetkazish uchun payg'ambar bo'lib keldim», deganlar. Yana bir hadisi sharifda: «Mo'min kishiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqdir», deyilgan. Rasuli akram haqlarida so'ragan kishilarga zavjalari hazrati Oisha: «Payg'ambarimizning axloqlari Qur'on edi», deb javob berganlar. Haqiqatan Qur'onning barcha amrlari Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam) siyrat va suratlarida aks etgan.

Payg'ambar o'zi sizlarga ato etgan narsani olinglar, u zot sizlarni qaytargan narsadan qaytinglar va Allohdan qo'rqinglar! (Hashr surasi, 7-oyat).

Muhammad 40 yoshga to'lganida o'zini boshqacha seza boshlaydi. Yolg'izlikni qo'msab, Makka yonidagi Hiro tog'ida joylashgan g'orga borib ibodat bilan mashg'ul bo'lar, o'yga tolardi. Taxminan 610-yilda Muhammad Makkada o'zining Allohdan vahiy olayotganligini e'lon qiladi. Buni birinchilardan bo'lib Xadicha, Muhammadning amakivachchasi Ali ibn Abu Tolib hamda asrandi o'g'li Zayd ibn Horisa e'tirof etib iymon keltirishgan. Ko'p o'tmay, Makkaning eng nufuzli birinchilardan bo'lib Xadicha, Muhammadning amakivachchasi Ali ibn Abu Tolib hamda asrandi o'g'li Zayd ibn Horisa e'tirof etib iymon keltirishgan. Ko'p o'tmay, Makkaning eng nufuzli savdogarlaridan Abu Bakr, Zubayr, Talha, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Usmon ibn Affon va keyinchalik Madinaning eng nufuzli savdogari

bo'ladigan Abdurahmon ibn Avf Muhammadni chin payg'ambar deb tan olishgan. Muhammad izdoshlari jamoasi dastlabki paytlarda 50 kishidan oshmagan. Makkaning asosiy aholisi, ayniqsa, nufuzli qurayshliklar esa Muhammad ta'limotini ochiqdan-ochiq dushmanlik bilan qarshi olgan. Buning natijasida Muhammad tarafdorlaridan 11 xonadon Habashiston (hozirgi Efiopiya) ga ko'chib ketgan. Muhammad jamoasiga jasur jangchilar sifatida tanilgan Hamza va Umar ibn Xattobning qo'shilishi jamoaning mavqeini oshirdi. Ayni vaqtda quraysh zodagonlarining Muhammad va uning tarafdorlariga dushmanligi yanada kuchaydi. 620-yilda Xadichaning, so'ngra Abu Tolibning vafotidan so'ng Makkada vaziyat yomonlashadi, Muhammad muayyan xatar ostida qoladi. Har yilgi an'anaviy Makka ziyoratiga kelgan yasriblik Avs va Hazraj qabilalarining vakillari Muhammad bilan uchrashib, sodiqlik bildirishadi va yordam qilishga va'da berishadi, Muhammadni Yasribga ko'chib borishga da'vat qilishadi. Avval Muhammadning izdoshlari (as'hoblar) o'z oilalari bilan quraysh zodagonlaridan maxfiy ravishda guruh-guruh bo'lib ko'chadi. Oxirida Muhammadning o'zi Abu Bakr bilan jo'nab ketadi. 622-yildada yuz bergan bu ko'chish payti (arab, hijrat)dan musulmonlar erasi — hijriy yil hisobi boshlanadi. Yasrib esa Madina an-Nabiy („Payg'ambar shahri“) yoki qisqacha, Madina deb ataladigan bo'ldi. Muhammad (s.a.v.) 632-yilda Madinada vafot etadi.

Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday deb aytdilar: “Sizlarni tark etib ketgan vaqtim davomida (ya'ni Qiyomatda uchrashgunimizga qadar) mening vasiyatlarimga amal qilinglar, chunki sizlardan oldingilar o'z payg'ambarlariga osiylik qilib halokatga uchraganlar. Men sizlarni nimadan qaytargan bo'lsam, qilmanglar va nimani amr qilgan bo'lsam, imkoningiz qadar ado etinglar”

VIII asr boshlarida arablar Movaraunnahr hudularini bosib olishga urinishadilar va bu ishni Qutayba ibn Muslimga topshiradilar. 705-yilda Balxni egallashdan boshlagan Qutayba oxir-oqibat Movaraunnahr hududlarini to'liq egallaydi. Shu tariqa islom dini Movaraunnahrda va boshqa o'lkalarga yoyiladi. ;

Bugungi kunda yer yuzi aholisining qariyb 2 milliard kishisi islom diniga e'tiqod qilishadi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% dan ortig'ini tashkil etadi.

Movarounnahrda VIII-IX asrlarda islom dinining keng tarqlashi barcha sohalar, fan, madaniyat, falsafa, ijtimoiy hayot rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'sha davr tarixini tahlil qilar ekanmiz, mashhur mutafakkirlar, qomusiy olimlar yetishib chiqqanini ko'ramiz. Demak, o'sha davr tarixi, madaniyati, ilm-u fan, ta'lim-tarbiya jarayoni o'ziga xos tarzda bo'lib, turli xil tarix silsilalari, urushlar, nizolar oqibatida ham ijobiy rivoj topganligini ta'kidlashimiz mumkin. Bu o'rinda ta'lim-tarbiya ishlarining rivojlanishi g'oyalarini chuqur tahli etishimiz, uni atroflicha mantiqiy

baholash, imkon darajasida tarixiy merosimizning ilmiy-nazariy asoslaridan foydalanish yo'llarini izlash zaruriyati kelib chiqadi.

“Movarounnahrning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'yi oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan jome masjid, xonaqoh va namozgohlar bino qilindi. Shu davrda Buxoro shahrida musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh - madrasa bunyod etildi. Buxoroning bu qadimiy madrasasi shaharning Darvozai Mansur mahallasida joylashgan edi. Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda “ustod” deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom “shayx ul islom” nomi bilan yanada ulug'landi. Ustodlardan keyin xatiblar turardi.

O'sha davrda islom madaniyati shakllanishining ichki va tashqi manbalari, tamoyillari, ahkomlari, munosabatlari asta-sekinlik bilan rivojlana borganligini, shuningdek ta'lim-tarbiya sohasiga oid o'zaro munosabatlar, ustoz-shogird munosabatlari paydo bo'la boshlaganligini qayd etishimiz mumkin.

Ma'lumki, jahon madaniyati xazinasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan arab tilidagi adabiyot faqatgina arablar emas, balki ko'pgina xalqlar namoyandalari tomonidan yaratilgan o'lmas yodgorlik bo'lib, u o'z taraqqiyotida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Abbosiy xalifalar /750-1258/ davrida, ayniqsa dastlabki, uch asrda fan va adabiyot, shuningdek, tarixnavislik ham ravnaq topdi. Xalifalikning poytaxti Bag'dod shahri adabiyot va ilmiy tafakkurning markazlaridan biriga aylanib, arab tili esa ilm va fan ahllari uchun asosiy vosita rolini o'ynadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Hadis (Al-Jomi' assahih), 1—4-j.lar (2-nashri), T., 1997; Imom atTermiziy, Shamoili Muhammadiyya, T., 1991; Sog'unuy A., Tarixi Muhammadiy (1—2-kitob), T., 1997; Hazrati payg'ambar hayoti (2nashri), T., 1997; Hasanov,

S. Oqilov Islom dini tarixi va falsafasi

A. Sarimsaqov. N. Dehqonov Jahon tarixi-Osiyo va Afrika mamlakatlarining O`rta asrlar tarixi.

Bekzod Normuhamatov:

Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.

Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.

Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.

Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).

Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.

Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-48.

Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.

Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.